JANNATNI RAD ETGAN MUHABBAT: ROBIYA AL-ADAVIYA SIRI

Abdusayitova Aziza Sunnat qizi
KaDPI Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
4-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tasvvuf ta'limotida chuqur iz qoldirgan mashhur so`fiy ayol Robiya Adaviya haqida muxtasar so`z yurtiladi. Hamda Huvaydo ijodida Robiya Adaviya obrazining badiiy talqini tahlil etiladi. Unda Robiyaning tasavvufiy qarashlari, ma'naviy yetukligi, ruhiy poklik va ilohiy muhabbatga bo'lgan intilishi Huvaydo asarlarida qanday aks etgani yoritiladi. Farididdin Attorning " Tazkirat ul-avliyo" asarida keltirilgan Robiya Adaviyaning karomatlari bayon qilinadi.

Kalit so'zla

Robiya ul-Adaviya, sufiylik, tasavvuf, ilohiy ishq, ruhiy kamolot, karomat.

Annotation

This article briefly discusses Rabia al-Adawiyya, a famous female Sufi who left a profound mark on the teachings of Sufism. It also analyzes the artistic interpretation of Rabia al-Adawiyya's image in the works of Huvaydo. The study highlights how Rabia's Sufi views, spiritual maturity, inner purity, and her aspiration toward divine love are reflected in Huvaydo's writings. Furthermore, the miracles of Rabia al-Adawiyya presented in Tazkirat al-Awliya by Farid al-Din Attar are described.

Аннотация

В данной статье кратко рассматривается Рабия аль-Адавия — известная женщина-суфий, оставившая глубокий след в учении суфизма. Также анализируется художественная интерпретация образа Рабии аль-Адавии в творчестве Хувайдо. В работе освещается, как суфийские взгляды Рабии, её духовная зрелость, внутренняя чистота и стремление к божественной любви отражены в произведениях Хувайдо. Кроме того, приводятся караматы Рабии аль-Адавии, изложенные в произведении Тазкират аль-авлия Фарид ад-Дин Аттар.

Tasavvuf tarixida Robiya al-Adaviya nomi alohida hurmat bilan tilga olinadi. U nafaqat ilk mashhur so'fiy ayollardan biri, balki ilohiy muhabbat — sof va manfaatdan holi ishq g'oyasini yuksak darajada ifoda etgan buyuk zotdir. Uning hayoti va ruhiy yo'li ko'plab asarlarda, jumladan Men Robiyada badiiy talqin qilingan. Robiya al-Adaviya (713/714–801) — zohidlikning ilk vakilasi. Qashshoq arab oilasida tug'ilib, cho'ri qilib sotilgan. Keyinchalik xudojo'yligi va zohidlarga xos turmush tarziga ixlos bilan rioya etgani sababli ozodlikka chiqarilgan. Bir necha yil sahroda yolg'izlikda kun kechirgan, keyin Basrada yashagan. Robiya Adaviya Allohni sevishdan boshqa jamiki narsalarni rad etish tarafdori bo'lgan. Allohdan hech bir tama — manfaat ko'zlamay, uni mutlaq sevish inson ma'naviy hayotining mohiyati ekanini zohidlardan birinchi bo'lib ta'kidlagan. Uning g'oyalari keyingi avlod sufiylari orasida keng tarqalib, Bistomiy,Mansur Xalloj, Ibn Farid, Ibn Arabiy va boshqa sufiylar ta'limotining asosini tashkil etgan. Robiya al-Adaviya taqvodorlik va Allohni sevish namunasi sifatida tanilib, avliyo darajasida ulug'lanadi.[1] Uni mashhur

[1] https://qomus.info/oz/encyclopedia/r/robia-al-adaviya/

duolaridan biri ilohiy ishqni tarnnum etgan hisoblanadi. “Ey Alloh! Agar Senga do‘zax qo‘rquvidan ibodat qilsam — meni do‘zaxga tashla. Agar jannat umidida ibodat qilsam — meni undan mahrum qil. Ammo, Seni faqat O‘zing uchun sevgan bo‘lsam — meni jamolingdan ayirma.” Naql qilurki, Robyia bir kuni kasal bo‘lib, yiqildi. Bir o‘g‘ri keldi, qarasa bir zaifa yotibdi, boshi ostida bir chodir qo‘yibdur, qimmatbaho chodir ekan deb, olib qochar bo‘ldi. Ko‘rdikim, uyining eshigi yo‘q, devori temirdan. O‘g‘ri nochor chodirni o‘rniga qo‘ydi. Darhol eshikni yopdi. Yana chodirni olib chiqar bo‘ldi, eshikni topmadi. Yana chodirni qo‘ydi, eshik ko‘rindi. Necha marotaba shunday qildi. Chodirni olgach eshik yo‘q bo‘ldi. Shu holda o‘g‘ri bir ovoz eshitti: — Bir do‘st uyquda bo‘lsa, bir do‘st uyg‘oqdir. O‘g‘ri bu ovozni eshitgach, ichiga bir o‘t tushib, ixlos bilan tavba qildi va musulmon bo‘ldi.[2] Bu karomat “Tazkirat ul-avliyo” asarida keltirilgan bo‘lib, unda Robiyaning o‘ziga xos maqomga erishganligiga ishora qilingan. Ushbu rivoyatda Robiya Adaviyaning karomati juda nozik, lekin chuqur ma’noda tasvirlangan. Avvalo, voqeada Robiya oddiy zaifa (ojiz ayol) holatida ko‘rsatiladi — kasal, yiqilgan, himoyasiz. Tashqi tomondan u hech qanday kuchga ega emasdek tuyuladi. Lekin aynan shu holatda ilohiy himoya namoyon bo‘ladi: o‘g‘ri chodirni olmoqchi bo‘lganda eshik goh yo‘qoladi, goh paydo bo‘ladi. Bu hodisa tabiiy emas — bu karomat, ya’ni Alloh tomonidan solih bandaga berilgan g‘ayritabiiy yordamdir. Bu yerda bir nichta muhim jihatlar mavjud. Ilk jihatlardan biri tavakkul (Allohga to‘liq suyanish) Robiya hech qanday tashqi himoya qilmaydi. Uning “himoyasi” — Allohga bo‘lgan to‘liq ishonchi. Shu sababli moddiy sabablar (eshik, devor) emas, balki ilohiy iroda ish ko‘radi. Keyingisi dunyoga befarqlik. Chodir qimmatbaho bo‘lsa ham, Robiya uchun uning ahamiyati yo‘q. U mol-dunyoni asrash uchun kurashmaydi. Lekin Alloh o‘zi uni himoya qiladi. Bu tasavvufdagi muhim g‘oya: dunyoni tark etsang, u senga xizmat qiladi. Navbatdagi muhim jihatlarida bir - bu Karomatning maqsadi — hidoyat. Rivoyatda eng muhim nuqta: bu mo‘jiza shunchaki boylikni saqlash uchun emas. Oxirida o‘g‘ri bir ovoz eshitadi:“Bir do‘st uyquda bo‘lsa, bir do‘st uyg‘oqdir.” Ushu karomat orqali Robiyani shu qadar Allohga yaqin va do‘sti bo‘lganligi hamda Adaviya ilohiy ishqqa erishganligini ham anglashimiz mumkin. Robiya tasavvuf yo‘liga kirgan hamda marifat va haqiqatga erishgan ilk so‘fiy ayol hisoblanadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ya’ni Robiya “Ilmul Haqqul yaqin”(ilmga yetishish va qayta tug‘ilish) darajasiga ko‘tarilgan.

Robiya Adaviya haqida Huvaydoning “Rohati dil” asarida ham qisman keltirilgan. Ushbu asarning Ibrohim Adham haqidagi hikoyati orasida Robiya Adaviya to‘g‘risida bayon qilingan hisoblanadi. Asarda Robiya haqida berilgan qismi quyidagicha:

Dedi ey Robia baxting na bo`ldi?

Saning olding`a Ka’ba keldi bexosdan,

Nega boqmassan anga qarab rost.

Dediki Robia baxting saningdur

Bu so`zni manga andog` aytganingdur

Mashaqqatsiz yemishda yo`q lazzat,

Topilsa mashaqqatsiz har nimarsa.

Aning qadrin bilmasdur har kimsa,

[2] Attor, Fariduddin “Tazkirat ul-avliyo” / F. Attor; nashrga tayyor. va so‘zboshi muallifi A. Madarimov, o‘zbek tiliga aylantiruvchilar M. Xasanov, X. Aminov, A. Xasanli, A. Madarimov. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. — 446 b.

So`radi boz sulton Robiadan

Manga aytg`il dedi bu voqeadin

Ki san har bir qadamda ikki ra'qat

O`qur eding namoz, ey neki hikmat

Manam har bir qadamda ikki ra'qat

Namoz o`quv qilur edim ibodat....[3]

Bu misralarda Robianing ham Ibrohimning ham Ka'baga kelish uchun har qadamda ikki rakat namoz o`qiganligini guvohi bo`lishimiz mumkin. Ka'baga kelish uchun har qadamda ikki rakat namoz o`qiganligini guvohi bo`lishimiz mumkin. Robia esa Ka'ba uning oldiga chiqanligini u chanqab yotgan itga suv berishi voqeasi bilan bog`laydi. Bu voqea asrda shunday ifodalangan edi:

O`shal itga kelub erdi suv berdi,

Ichub suv ondin o`z holig`a keldi.

Duo aylab dedi it, yo ilohe!

Hama darmodaning san-san panohe

Bu bandangning bugun na maqsudi bor,

Ravo qilg`il ayo donoyi asror

Ijobat bo`ldi u itning duosi,

Muyassar bo`ldi ul dam muddaosi.

Bu misralarda aynan Robiyaning niyati ijobat bo`lishiga uni itning sug`orishi va it uni duo qilish voqeasi sabab qilib keltiriladi. Alloh nazdida hech bir savobli ish javobsiz qolmasligini yuqoridagi hikoyatdan ham ko`rishimiz mumkin, chunki Alloh rahmdil va u yaratgan narsalarni sevuvchi va shukrona keltiruvchi bandalarini boshqa bandalaridan a'lo ko`radi. Mallif o'z asarida Robiyatul Adaviyani qay darajada ulug' va valiy ayol bo'lganligini ko'rsatib o'tgan.

Robiya Adaviya haqida romanlar ham yaratilib, ular ham haqiqat asosiga qurilgandir. Shunday asarlardan biri – bu turk yozuvchisi Sadiya Erol Aykachning " Men Robiya…" hisoblanadi. Ushbu romanda Robiyaning hayoti bayon qilinish bilan bir qatorda tasvvufga oid shariat, tariqat, marifat va haqiqat bosqichlari berib borilgan. Ya'ni roman davomida Robiya Adaviya ushbu bosqichlardan birma bir o'tib, so'ngida o'zi kuylagan haqiqat darajasiga erishadi. U fano (yo'qlik)ka hamda rizo darajasiga erishishga muvofiq bo'ladi. Ma'ruf Karxiy va Abu Sail Xarroz "fano" (yo'qolish) deb atalilar. Zerokim, solik o'zi bilan Iloh orasidagi masofani qisqartira borib, vujud to'siqlari (moado, mosivo, parda)ni yengib o'tib, shaxsiy "men"dan qutuladi va to'laligicha Mutlaqqiyatga qo'shilib, U bilan qorishib, erib ketadi. So'fiylar buni qatraning dengizga qo'shilishi yoxud qizitilgan temirning olov bilan bir xil tus olishi bilan qiyoslab tushuntirganlar.[4] Maqolada Robiya Adaviya siymosi orqali tasavvufdagi ilohiy ishq, zuhd va ma'naviy kamolot masalalari yoritildi. Uning hayoti,

[3] Х.Хувайдо. Рохати дил. Т;. А. Кодирий номидаги халк мероси наширёти. 1994.-Б100

[4] Тасаввуф / Н. Комилов; —Т.: «Movaurannahr» — « O`zbekiston, 2009. —448 б.

karomatlari hamda Huvaydo ijodidagi badiiy talqini tahlili asosida Robiya Adaviya nafaqat tarixiy shaxs, balki komil inson timsoli sifatida gavdalantirildi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, uning Allohga beg‘araz muhabbat haqidagi qarashlari tasavvuf tafakkurida muhim o‘rin tutadi va bugun ham ma’naviy-axloqiy ahamiyatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://qomus.info/oz/encyclopedia/r/robia-al-adaviya/
2. Attor, Fariduddin “Tazkirat ul-avliyo” / F. Attor; nashrga tayyor. va so‘zboshi muallifi A. Madarimov, o‘zbek tiliga aylantiruvchilar M. Xasanov, X. Aminov, A. Xasanli, A. Madarimov. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. — 446 b.
3. Х.Хувайдо. Рохати дил. Т;. А. Кодирий номидаги халк мероси наширёти. 1994.- Б100 4. Тасаввуф / Н. Комилов; —Т.: «Movaurannahr» — « O`zbekiston, 2009. 448 б.